



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hasanov Ahmad

SamDU tadqiqotchisi

XARAKTERNI TASVIRLASHDA DIOLOG VA MONOLOG

Yozuvchi Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani haqidagi adabiy bahslarni ko'zdan kechirib, aytish mumkinki, munaqqid va kitobxonlar uchun muallif nuqtai nazarini aniqlash eng muhim masalaga aylangan. Zotan, badiiy asarning konseptual yaxlitligini ta'minlashda muallif obrazining ifodasi muhim rol o'ynaydi. Adabiyotshunos olim Mixail Baxtin badiiy asardagi birlamchi va ikkilamchi muallifni ajratib ko'rsatadi. Shunga ko'ra, "Lolazor"dagi roman ijokori – o'z so'zi bilan ishtirok etmaydigan birlamchi muallif va o'z so'zi bilan qatnashayotgan muallif tafakkuri, dunyoqarashiga xos xususiyatlar ifodachisi o'laroq namoyon bo'ladigan ikkilamchi muallif obrazini farqlaymiz. Bu o'rinda ikkilamchi muallif obrazi haqida fikr yuritamiz.

Ikkilamchi muallif obrazini ifoda etishda adibning "Galatepaga qaytish", "Iste'fo" qissalari bilan "Lolazor" romanida jiddiy farq ko'zga tashlanadi. "Galatepaga qaytish"dagi G'aybarov ko'p jihatdan ikkilamchi muallif obrazi vazifalarini "o'zlashtirgan". Muallif o'z dunyoqarashi, ijtimoiy-axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasini ko'p jihatdan Toshpo'lat G'aybarov orqali aks ettiradi. Ayni paytda G'aybarov bilan biografik muallif orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmaydi. "Iste'fo" qissasiga ham Toshpo'lat G'aybarov muallifning ijtimoiy-ma'naviy qarashlariga muvofiq qahramon sifatida kiritilgan. "Iste'fo"da G'aybarov ikkinchi darajali personaj holida ko'rinadi, bu esa ikkilamchi muallif obrazini aks ettiruvchi obraz ishtiroki qisqargan demakdir. Toshpo'lat G'aybarovni biz "Lolazor" romanida

ham uchratamiz, biroq uning ishtiroki hatto epizodik obraznikidan ham kichikroq, Saidqul Mardon uni bor-yo'g'i bir marta eslab o'tadi, xolos. "Galatepaga qaytish", "Iste'fo" va "Lolazor" asarlarini o'zaro qiyoslasak, qiziq bir teskarilik kuzatiladi: asardan asarga muallifning voqelikka kinoyaviy munosabati kuchayib boradi, ayni paytda muallif ongi, tafakkurini, ijtimoiy-ma'naviy pozitsiyasini aks ettiradigan qahramon ishtiroki tobora kamayib boradi. Suqrotga xos kinoyaviy pozitsiyani esga oladigan bo'lsak, muallif ayni donishmand kabi savol qo'yganu endi faqat boshqalarning javobini tinglayotgandek. Murod Muhammad Do'st asardan asarga o'tgan sari o'zining so'ziga, "ovoz"iga ega ikkilamchi muallif ishtirokini qisqartirish evaziga o'zini chetga oladiki, natijada yozuvchining voqelikka kinoyaviy munosabatini ifoda etishning kompozitsion usullari salmog'i orta boradi. Romandagi dialogizm ana shunday usul sifatida ko'rinadi. Kino san'atida "kameo" degan tushuncha bor. Film rejissyori, mashhur shaxslar yoki taniqli aktyorlarning filmda epizodik, o'ta kichik bir rolni ijro etishi kameo deyiladi. Muhammad Do'st "Iste'fo" va "Lolazor" asarlarida mohiyatan kameoga o'xshash usulni qo'llaydi. "Iste'fo" qissasida Murod degan kichkinagina obraz bor. "Lolazor"da bu usul nisbatan kengroq qo'llangan. Romanda biografik muallifning hayotiy qarashlari, ijtimoiy-ma'naviy nuqtai nazariga yaqin turadigan uchta obraz bor, bular – Toshpo'lat G'aybarov, Ko'klamov va muharrir yigit Sayfiddin. Bu safga yana qisman "Mahmadana"ni ham kiritish mumkin. Ushbu obrazlar ikkilamchi muallif obrazini to'laligicha aks ettirmaydi, lekin Yaxshiboyev va Saidqul Mardon mikrodialogi, ya'ni qahramon ongidagi dialogda muallif ishtirokining hayotiy asoslarini ko'rsatish, asoslash vazifasini bajaradi.

Nazar Yaxshiboyev va Saidqul Mardon obrazini yaratar ekan, Murod Muhammad Do'st nafaqat bu ikki ijtimoiy tipning hayotiy ildizlariga tayanadi, balki shu ikki toifa kishilar bilan o'zining shaxsiy muomala-muloqotlari, ehtimolki, o'z ongida ular bilan sodir bo'lgan bahslarga ham tayanadi. Tasavvur qilish mumkinki, muallif o'zidan katta avlodning ikki xil tipiga mansub kishilar bilan muloqot davomida bir holatga – Mixail Baxtin "o'girilib qarash" deb atagan hodisaga ko'p marta duch kelgan. Ularning hayotiy pozitsiyasi, kechirgan umri, ijtimoiy-ma'naviy tanlovi haqida suhbatdosh, deylik, keyingi avlod vakili qanday fikrda bo'lishi, qanday hukm-xulosaga kelishi ularni nihoyatda qiziqtirgan. Buni hayotda ko'p bor kuzatgan Muhammad Do'st "Lolazor"da Yaxshiboyev va Saidqul Mardon "o'zga"ning (ayniqsa, muallif mansub avlod vakillarining) fikriga, "bu odam men haqimda nima deb o'ylayapti?", degan hadikda "o'girilib qarash"lariga juda keng o'rin bergan.

"Lolazor" romanidagi "Bemor" va "Qissanavis" boblarida aks etgan dialog muallif ongida har ikki tip bilan ro'y bergan dialogning boshqa qutbdan (Yaxshiboyev, Saidqul Mardon tomonidan) berilgan talqinidir. Boshqacha aytganda, romanda nafaqat qahramonlar, balki muallif bilan qahramonlar o'rtasidagi dialog ham aks etgan. Muallif va Yaxshiboyev, muallif va Saidqul Mardon dialogining romandagi ifodasi ko'p jihatdan "Yaxshiboyev – Saidqul Mardon" dialogiga bog'liq bo'lib, avval shu haqda fikr yuritimiz.

"Yaxshiboyev – Saidqul Mardon" dialogi kompozitsion sathda – "Bemor" va "Qissanavis" boblarining o'zaro dialogi shaklida berilgan, biroq qahramonlar



ongidagi dialog – mikrodialog shaklida berilmagan, ya’ni roman badiiy vaqti davomida Saidqul Mardon o‘z ongida Yaxshiboyev bilan, Yaxshiboyev esa Saidqul Mardon bilan dialogga kirishmaydi. “Roman badiiy vaqti davomida” deb ta’kidlashimizning sababi shundaki, Yaxshiboyev ongida qachonlardir Saidqul Mardon bilan dialog yuz bergan. Bu dialog izlarini biz uning Saidqul Mardonnikiga ilk bor kelgan paytidagi suhbat davomida his qilamiz: “Keyin aytmoqchimanki, siz meni ancha jo‘n tushunarkansiz. Tushunchangiz jo‘n emas, yo‘q, siz xiyla zukko odamsiz, lekin mening o‘zimni jo‘n deb o‘ylaganingiz yomon”. Bu paytda Yaxshiboyev ongida Saidqul Mardon bilan dialog ro‘y berayotgandiki, uning Saidqul Mardonnikiga kelishi ham ana shu ichki bahslarning natijasi edi. Yaxshiboyev Saidqul Mardonga – halolligi va yo‘riqqa tushmagani uchun havas qiladigan odamiga o‘zini tushuntirishni xohlaydi. Munaqqid va tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolib kelayotgan bir tasvir bor, bu Yaxshiboyevning Saidqul Mardon haqida yozgan qissasidir. Biz qissaning mazmunidan bexabarmiz, lekin butun roman matniga tayangan holda ushbu qissaga qahramonlarni tushunishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, baho berishimiz mumkin. Saidqul Mardon Yaxshiboyev kechmishini yozish davomida o‘ziga Yaxshiboyev ko‘zi bilan qarashga, u va o‘zi haqidagi qarashlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi. Yaxshiboyev ham qissani yozar ekan, tasavvuridagi Saidqul Mardon voqelikdagi Saidqul Mardondan farq qilishi ma’lum bo‘lib qoladi. Natijada, Saidqul Mardon Yaxshiboyevni dialog sub’ekti sifatida qiziqitirmay qo‘yadi, shuning uchun ham u qissani oxiriga etkazolmaydi. Shunga ko‘ra, “Bemor” boblari zamon va makonida Saidqul Mardon Yaxshiboyev uchun dialog sub’ekti emas, kinoya ob’ekti darajasiga tushib qoladiki, Yaxshiboyev uni bor-yo‘g‘i uch marta, shundayam kinoya bilan eslaydi, xolos. Sababi Yaxshiboyev ongidagi “Yaxshiboyev –Saidqul Mardon” dialogi qahramon uchun allaqachon qimmatini yo‘qotib bo‘lgan. Saidqul Mardon esa o‘z ongida Yaxshiboyev bilan dialogga kirishishdan ongli-onsiz ravishda o‘zini olib qochadi. “Qissanavis” boblarida Saidqul Mardon Yaxshiboyevni dialogning predmeti darajasida qoldirishga, matnni u bilan bahs shaklida emas, u haqdagi xotiralar shaklida qurishga intiladi. Biroq Yaxshiboyev shaxsi haqida yaqindan bilgan sari, uning hayotini yashab ko‘rgan sari Yaxshiboyev u uchun predmet darajasidan chiqib, bahsga kirishadigan sub’ekt (“o‘zga”) darajasiga chiqib boraveradi. Bu hol Saidqul Mardonni boshqa bir “o‘zga” tomon o‘girilishga, muallif mansub avlod nigohida o‘z hayotiy pozitsiyasining maqbulligini tasdiqlab olish istagiga sabab bo‘ladi. Buning yorqin misoli sifatida Saidqul Mardonning muharrir yigit Sayfiddin bilan suhbatini eslash kifoya: “Yoshimga yarashmasa ham, yugurib borib bilagidan tutdim... Ukamiz ovozimdagi yalinchoqlikni sezdimi, birdan xijolat chekdi”. Sayfiddin Saidqul Mardonni u kutganidek qabul qilmaydi, uning qarashlarini Yaxshiboyevnikidan afzalroq deb bilmaydi. Sayfiddin va do‘stlari Saidqul Mardon kutayotganidan xabari bo‘lgan holda unikiga kelmasliklarida shunday ma’no bor, Saidqul Mardon ularni shaxs sifatida qiziqitirmaydi. Buni Saidqul Mardonning o‘zi ham his qiladi, his qilgani barobarida ular nazarida o‘zining darajasini tasdiqlab olish ehtiyoji ham kuchayib boraveradi.



Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, keyingi avlod vakillariga o‘z dunyoqarashiga ega inson sifatida taqdim etish istagi har ikki qahramon – Nazar Yaxshiboyev va Saidqul Mardon uchun ham xos. Faqat Yaxshiboyevning muallif mansub avlod bilan ichki dialogida Saidqul Mardondan farqli bir jihat bor. Yaxshiboyev ongida “o‘zga” sifatida ko‘rinayotgan muallif mansub avlod vakillarini unga baho beradigan, hukm qiladigan darajada qoldirmaydi, o‘zi haqidagi haqiqatni ulardan avvalroq anglaydi, e’tirof etadi. Bu bilan u o‘z ongidagi har qanday “o‘zga” maqomidagi odamdan bir pog‘ona balandga ko‘tariladi. O‘zi mansub avlodda ham, keyingi avlodda ham hukm chiqarishga haqli odam yo‘qligiga bo‘lgan ishonch uning barcha-barchaga kinoyaviy munosabatini psixologik jihatdan asoslab turadi.

Xullas romanda dialoglar orqali personajlar xarakterini osongina anglaymiz. Yozuvchi tomonidan ularga batafsil ma’lumot berishi yoki, portreti chizilishi unchalik muhim emas. Ularning gap so‘zlari orqali biz tashqi qiyofasi-yu ichki olamini anglashimiz mumkin. Monologlardan Nazar Yaxshiboyev ruhiy olami bilan bir qatorda atrofidagi insonlar ma’naviy qiyofasini anglaymiz. Bu yozuvchining o‘ziga xos uslubi bo‘lib asar manerasini yoritib beradi. Kitobxonga asar g‘oyasini anglashga turtki vazifasini o‘taydi va qahramon ruhiy olamini tahlil qilishga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002 йил.
2. Мурод Муҳаммад Дўст. “Лолазор”. -Тошкент: “Шарк”, 1998. – Б. 555.
3. Мурод Муҳаммад Дўст. “Истеъфо”. -Тошкент: “Ёш гвардия”, 1989.
4. Мурод Муҳаммад Дўст. “Галатепага қайтиш”. -Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2009. – Б. 240.